

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№2

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 561 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILYI MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA‘MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o‘g‘li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO‘YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG‘URTA FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBİ: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJİY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI	66
Alimardonov G‘ayratjon Nuraliyevich	
XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o‘g‘li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA‘MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIYA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIYAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohrux Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B.Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGS1 ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liqin Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinova	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSIYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQUISH	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otaylor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI	450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	454
Ismoilov Zuhridin Sayitqulovich	
ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI	459
Toshniyozov Otabek Hakimovich	
MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI	464
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi	



BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI	470
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	476
Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	483
Abduraxmonova Feruzabonu	
ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	489
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINING TASHKILIY TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH	495
Uzakova Umida Ruziyevna	
OLIY TA‘LIMNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI VA PROFESSOR-O‘QITUVCHI–TALABA NISBATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY BOG‘LIQLIK.....	502
Dusanov Salim Mamarasulovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЫ AML: АНАЛИЗ ПРАКТИК ВЕДУЩИХ БАНКОВ И СТРАН СНГ	507
Рашидов Авазбек Рахимович	
BOJXONA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI	516
Radjapova Latofat Sardorovna	
DEFORMATSİYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ (STANDARD LINEAR SOLID MODEL, SLS) MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONINI TAHLIL QILISH	523
Ahmadov Ilhom Aktam o‘g‘li, Faxriddinova Rayhona Vahobjon qizi, Rustamova Ruxsora Kamtar qizi	
ВЛИЯНИЕ КЕРАМИЧЕСКИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ НА ТЕПЛОВУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАМЕННОГО ТЕПЛОАККУМУЛЯТОРА В СОЛНЕЧНО-АССИСТИРОВАННЫХ БИОГАЗОВЫХ УСТАНОВКАХ	530
Д.М. Жураханов	
O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KELAJAKDAGI IMKONIYATLARI.....	537
Akbarov Husniddinjon Mo‘ysin o‘g‘li	
MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH	544
Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich, Normatov Joxongir Murodillayevich	
DON MAHSULOTLARI TARMOG‘IDA ISHLAB CHIQARISH QUUVATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	548
Aipova Iroda Ikramovna	
BUXORO VILOYATI SANOATI ISHLAB CHIQARISHINING TARMOQ TARKIBI DINAMIKASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR TAHLILI	554
Toshov Mirzabek Hakimovich	



BUXORO VILOYATI SANOATI ISHLAB CHIQRISHINING TARMOQ TARKIBI DINAMIKASI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR TAHLILI

Toshov Mirzabek Hakimovich

Osiyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro viloyati sanoati ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi, uning yillar davomida o'zgarish dinamikasi hamda strukturaviy siljishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida sanoat tarmoqlarining umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, o'sish sur'atlari va diversifikatsiya darajasi statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Tahlillar natijasida viloyatda yoqilg'i-energetika hamda qayta ishlash sanoati yetakchi o'rin tutayotgani, so'nggi yillarda qayta ishlash tarmoqlarining ulushi ortib borayotgani aniqlandi. Tadqiqot hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: sanoat ishlab chiqarishi, tarmoq tarkibi, strukturaviy o'zgarishlar, diversifikatsiya, hududiy iqtisodiyot, Buxoro viloyati, iqtisodiy o'sish.

Abstract. This article analyzes the sectoral structure of industrial production in the Bukhara region, its dynamic changes over the years, and structural shifts. The study evaluates the share of industrial sectors in total production volume, growth rates, and the level of diversification based on statistical data. The analysis reveals that the fuel and energy sector as well as the manufacturing industry occupy leading positions in the region, with the share of manufacturing industries increasing in recent years. The research aims to develop scientific and practical recommendations for improving regional industrial policy and expanding the production of high value-added products.

Keywords: industrial production, sectoral structure, structural changes, diversification, regional economy, Bukhara region, economic growth.

Аннотация. В статье анализируются отраслевая структура промышленного производства Бухарской области, динамика её изменения за годы и структурные сдвиги. В ходе исследования на основе статистических данных оценены доля отраслей промышленности в общем объёме производства, темпы роста и уровень диверсификации. Результаты анализа показали, что в регионе ведущие позиции занимают топливно-энергетическая и перерабатывающая промышленность, при этом в последние годы наблюдается рост доли перерабатывающих отраслей. Исследование направлено на разработку научно-практических рекомендаций по совершенствованию региональной промышленной политики и расширению производства продукции с высокой добавленной стоимостью.

Ключевые слова: промышленное производство, отраслевая структура, структурные изменения, диверсификация, региональная экономика, Бухарская область, экономический рост.

KIRISH

Buxoro viloyati O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan muhim hududlaridan biri bo'lib, uning sanoat sektori mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishida asosiy rol o'ynaydi. So'nggi yillarda viloyat sanoatida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi: yangi korxonalar ishga tushirildi, mavjud tarmoqlar modernizatsiya qilindi va ishlab chiqarish hajmi oshdi.

Buxoro sanoatining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlarda energetika, kimyo, to'qimachilik, oziq-ovqat hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi asosiy sektorlar muhim o'rin tutadi. Ushbu o'zgarishlar nafaqat viloyatning ichki bozoriga, balki respublika iqtisodiyotining umumiy tarkibini diversifikatsiya qilish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatmoqda.



Bugungi kunda global iqtisodiy integratsiya va raqobat sharoitida viloyat sanoatining tarmoq tarkibini tahlil qilish hamda uning dinamikasi bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishi sanoat samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish imkoniyatlarini beradi.

Shu bois mazkur tadqiqot Buxoro viloyatining sanoat sohasidagi strukturaviy o'zgarishlarini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy samaraga ta'sirini aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy sanoat rivojlanishi va uning tarmoq tarkibi dinamikasi masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Iqtisodiy nazariyada sanoat tarkibining o'zgarishi iqtisodiyotning strukturaviy transformatsiyasi, resurslar qayta taqsimoti hamda texnologik modernizatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda izohlanadi. Xususan, strukturaviy o'zgarishlar nazariyasi (Clark-Fisher modeli)ga ko'ra, iqtisodiyot rivojlanishi jarayonida ustuvor yo'nalish qishloq xo'jaligidan sanoat va xizmatlar sohasiga o'tadi. Ushbu yondashuv hududlar kesimida ham qo'llanilib, sanoatning yetakchi tarmoqlari iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida baholanadi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, World Bank va Organisation for Economic Co-operation and Development hisobotlarida hududiy sanoatni diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishni kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy barqarorlikning muhim omili sifatida ko'rsatib o'tiladi. Ularning tadqiqotlarida sanoat tarkibidagi o'zgarishlar investitsiya oqimi, eksport salohiyati va bandlik darajasi bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham hududiy sanoat rivojlanishi masalalari keng tadqiq etilgan. Ilmiy ishlarda sanoatni modernizatsiya qilish, tarmoqlararo nisbatlarni optimallashtirish, mahalliy xom ashyodan samarali foydalanish hamda klasterlashuv jarayonlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish omili sifatida baholanadi. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan sanoat siyosati, xususan, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi va davlat investitsiya dasturlari hududlar sanoat tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani ilmiy tahlillarda qayd etilgan.

Rasmiy statistik manbalar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari Buxoro viloyati sanoatida yoqilg'i-energetika, kimyo va neft-gazni qayta ishlash, to'qimachilik hamda oziq-ovqat sanoati yetakchi o'rin egallashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda qayta ishlash sanoati ulushining ortib borishi viloyat sanoat tarkibida ijobiy strukturaviy siljishlar yuz berayotganini anglatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hududiy sanoat tarkibini o'rganishda nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki tarmoqlar ulushi, investitsiya oqimi, eksport hajmi, texnologik yangilanish darajasi hamda mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish zarur. Buxoro viloyati misolida ushbu masalalar bo'yicha chuqur empirik tahlil olib borish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etib, hududning sanoat siyosatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Buxoro viloyati sanoati ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi va uning dinamikasini aniqlash maqsadida o'zaro uzviy bog'langan bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

Avvalo, statistik ma'lumotlar asosida sanoat ishlab chiqarish hajmi va tarmoqlar ulushi tahlil qilinib, dinamik qatorlar yordamida yillar kesimidagi o'zgarish tendensiyalari aniqlandi. Keyingi bosqichda strukturaviy tahlil orqali sanoat tarmoqlarining umumiy ishlab chiqarish hajmidagi salmog'i hamda tarkibiy siljishlari baholandi.

Olingan natijalar taqqoslash va iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullari asosida izohlanib, hududiy sanoat rivojlanishining asosiy omillari hamda mavjud muammolari aniqlashtirildi. Shu tariqa qo'llanilgan metodlar o'zaro bir-birini to'ldirgan holda Buxoro viloyati sanoat tarkibidagi o'zgarishlarni kompleks baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoatning tarmoq tarkibini tahlil qilish uning tarkibidagi tarmoqlar qanchalik darajada rivojlanayotganini, qaysi yo'nalishlarda o'sish yoki qisqarish jarayonlari yuz berayotganini, shuningdek, tarkibda texnologik o'zgarishlar sodir bo'layotganini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tahlil tarmoqlarning iqtisodiy barqarorligi, investitsion salohiyati hamda ularning samaradorligini baholashga xizmat qiladi.

Dastlabki statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2016-2024-yillar oralig'ida Buxoro viloyati umumiy sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibida sezilarli strukturaviy o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan, umumiy sanoat hajmiga nisbatan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 2016-yilda 9,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 0,8 foizga tushgan. Natijada mazkur tarmoq ulushi 9,1 foiz punktga kamaygan.

Mazkur jarayon bosqichma-bosqich kechgan bo'lib, 2016-2018-yillarda ko'rsatkich 9,9 foizdan 7,0 foizga, 2019-2020-yillarda 8,6 foizdan 1,4 foizga, 2021-2022-yillarda 2,6 foizdan 1,2 foizga hamda 2023-2024-yillarda 1,4 foizdan 0,8 foizgacha pasayish dinamikasi bilan tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval. Buxoro viloyati umumiy sanoatining tarmoq tarkibi va dinamikasi

Sanoat tarmoqlari	Yillar								
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Umumiy sanoatning tarmoq tarkibi									
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	9,9	8,0	7,0	8,6	1,4	2,6	1,2	1,4	0,8
Ishlab chiqarish sanoati	85,6	87,0	88,4	88,1	95,5	94,6	94,5	94,5	94,6
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	3,6	3,8	3,1	2,4	2,6	2,1	3,6	3,5	3,8
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	0,9	1,2	1,6	0,9	0,6	0,7	0,6	0,6	0,8
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Buxoro viloyati umumiy sanoati tarmoq tarkibida tog'-kon sanoati ulushining pasayishi ijobiy holat sifatida baholanadi. Chunki mazkur jarayon viloyat sanoatining xom ashyoga bo'lgan qaramligi kamayib borayotganini anglatadi. Bu holat sanoatlashuvning tarkibiy o'zgarishi, viloyat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuvi, ishlab chiqarish hajmining kengayishi hamda tabiiy resurslardan foydalanish nisbatining optimallashtirish bilan tavsiflanadi. Qayta ishlash va qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan tarmoqlarga e'tiborning kuchayishi esa qayta ishlovchi sanoat rivoji uchun qulay muhit shakllantirmoqda.

Keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2016-2024-yillar oralig'ida Buxoro viloyati umumiy sanoati tarkibida ishlab chiqarish sanoati ulushi 9,0 foizga oshgan. Jumladan, 2016-yilda umumiy sanoat tarkibida 85,6 foizni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 94,6 foizga yetgan.

Buxoro viloyati umumiy sanoati tarkibida ishlab chiqarish sanoati 2016-2019-yillarda o'rtacha 87 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2020-2024-yillarda bu ko'rsatkich o'rtacha 94,7 foizni tashkil etdi. Mazkur davrda ishlab chiqarish sanoati ulushining 9 foizga oshishi sanoatning diversifikatsiyalashuvi, ya'ni texnologik salohiyati yuqori sohalar — qayta ishlash va innovatsion yo'nalishlarga o'tish jarayoni bilan izohlanadi. Shuningdek, investitsiyalar hajmining ortishi hamda davlat qo'llab-quvvatlovi asosida sanoat korxonalariga yo'naltirilgan xususiy va davlat investitsiyalarining ko'payishi muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

2016-2024-yillar oralig'ida Buxoro viloyati umumiy sanoati tarkibida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'i ulushi nisbatan barqaror, ayrim yillarda esa o'zgaruvchan tendensiyani namoyon etgan. 2016-yilda ushbu tarmoqning umumiy sanoatdagi ulushi 3,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 3,8 foizga yetgan. Umuman olganda, mazkur tarmoq ulushi 2016-2024-yillarda o'rtacha 3,2 foizni tashkil etdi. Bu o'sish sanoatning energiya ta'minoti va infratuzilmalarning barqaror rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Xususan, 2022 va 2024-yillarda ko'rsatkichning 3,6 foizdan 3,8 foizgacha oshishi viloyatda energiya ta'minoti tizimining samarali ishlashi va texnik yangilanishlarga tayanganini ko'rsatadi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish tarmog'i ulushi 2016-yilda 0,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 0,8 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning nisbatan barqarorligi resurslarni tejash, ekologik samaradorlikni oshirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq jarayonlar natijasi sifatida izohlanadi.

Energetika va suv ta'minoti tarmoqlari o'rtasida infratuzilmani rivojlantirish va hududiy barqarorlikni ta'minlashda o'zaro uzviy bog'liqlik mavjud. Elektr, gaz va havoni konditsiyalash tarmog'i sanoatning samarali faoliyati uchun asosiy infratuzilmaviy omil hisoblanadi. Suv ta'minoti va ekologik yo'nalishlardagi tizimlarning modernizatsiyasi esa ishlab chiqarish samaradorligi va ekologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2016-2024-yillar davomida Buxoro viloyati umumiy sanoati tarkibida o'rtacha ko'rsatkichlarga ko'ra, ishlab chiqarish sanoati 91,4 foiz bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Ikkinchi o'rinda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 4,5 foizni, elektr, gaz va havoni konditsiyalash tarmog'i 3,2 foizni hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi va chiqindilarni utilitatsiya qilish tarmog'i 0,9 foizni tashkil etadi.

Viloyat umumiy sanoatida ishlab chiqarish sanoati ulushining 90 foizdan yuqori bo'lishi ijobiy holat sifatida baholanadi. Ishlab chiqarish sanoati xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish orqali qo'shilgan qiymat yaratadi va sanoatni diversifikatsiyalashda asosiy o'rin tutadi. Uning rivojlanishi hududning xom ashyo resurslariga bo'lgan qaramligini kamaytiradi, iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan mustahkamlanishini ta'minlaydi hamda texnologik raqobatbardoshlikni oshiradi. Shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratilishiga, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga xizmat qiladi.



O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2016-2024-yillar oralig'ida Buxoro viloyati ishlab chiqarish sanoati tarkibi muhim o'zgarishlarga yuz tutgan. Bu jarayon o'zaro bog'liq iqtisodiy, ekologik va texnologik omillar ta'sirida hamda viloyatda sanoatni diversifikatsiyalash va tarmoqlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash maqsadida shakllangan (2-jadval).

2-jadval. Buxoro viloyati ishlab chiqarish sanoatining tarmoq tarkibi va dinamikasi

Ishlab chiqarish sanoati	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	29,59	24,33	21,57	17,28	16,64	17,60	13,94	14,18	20,97
Ichimliklar ishlab chiqarish	0,89	0,80	0,72	0,49	0,64	0,87	1,34	1,06	1,43
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	22,51	19,51	20,72	18,85	18,61	22,24	20,36	19,80	19,06
Kiyim ishlab chiqarish	0,63	6,16	5,05	3,86	3,59	3,62	2,91	2,51	3,60
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	0,10	0,10	0,10	0,06	0,05	0,14	0,07	0,12	0,16
Yog'och va po'kak buyumlar (mebel bundan mustasno), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	0,08	0,08	0,08	0,10	0,14	0,19	0,07	0,06	0,08
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	0,79	0,54	0,16	0,13	0,10	0,13	0,15	0,12	0,15
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,09	0,06	0,06	0,02	0,02	0,02	0,02	0,05	0,07
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	28,41	32,29	35,80	47,22	48,93	42,39	50,94	51,57	42,32
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	3,88	2,34	1,64	1,91	1,54	1,65	1,32	1,34	1,79
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	0,14	0,18	0,08	0,05	0,04	0,07	0,03	0,10	0,02
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	0,51	0,75	0,92	0,70	0,83	1,06	0,92	0,84	1,02
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	7,28	7,61	8,26	5,74	5,57	6,21	4,79	5,30	5,30
Metallurgiya sanoati	0,09	0,11	0,12	0,32	0,41	0,43	0,33	0,25	0,54
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	3,12	3,23	2,62	1,61	1,29	1,48	0,73	0,57	1,20
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,00	0,00	0,02	0,01	0,01	0,01	0,03	0,06	0,04
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	0,00	0,00	0,00	0,01	0,02	0,05	0,03	0,02	0,05



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	0,01	0,00	0,01	0,05	0,09	0,13	0,20	0,23	0,25
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	0,01	0,00	0,00	0,00	0,00	0,01	0,20	0,00	0,00
Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	0,00	0,00	0,13	0,30	0,23	0,28	0,57	0,73	0,34
Mebel ishlab chiqarish	0,92	1,05	0,96	0,82	0,82	0,97	0,70	0,79	1,20
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	0,27	0,02	0,01	0,07	0,11	0,08	0,08	0,04	0,06
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	0,66	0,83	0,99	0,38	0,30	0,37	0,27	0,25	0,34
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2016-2024-yillar oralig'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushida sezilarli kamayish kuzatildi. Jumladan, 2016-yilda 29,59 foizni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 14,18 foizgacha qisqardi. Mazkur jarayon qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar hamda ishlab chiqarish sanoati tarkibida boshqa tarmoqlar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

2016-yilda viloyat ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'iga (29,59 foiz) to'g'ri kelgan. Ikkinchi o'rinni 28,41 foiz bilan koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish, uchinchi o'rinni esa 22,51 foiz bilan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari egallagan.

Mazkur yilda ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng quyi ko'rsatkichlar boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish hamda avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish (0,01 foiz), yog'och va po'kak buyumlar (mebel bundan mustasno), somon va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish (0,08 foiz), shuningdek, metallurgiya sanoati (0,09 foiz) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan yilda viloyat ishlab chiqarish sanoati tarkibiga kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish, elektr uskunalari ishlab chiqarish hamda boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish tarmoqlari deyarli hissa qo'shmagan. E'tiborli jihati shundaki, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar hamda elektr uskunalari ishlab chiqarish tarmoqlari xalqaro statistik tasnifga ko'ra yuqori va o'rta texnologiyali yo'nalishlar sirasiga kiradi.

Mazkur holat kelgusida Buxoro viloyati ishlab chiqarish sanoati tarkibini yanada diversifikatsiyalash, yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish hamda hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyati sanoat ishlab chiqarishida so'nggi yillarda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Sanoat tarkibida yoqilg'i-energetika va neft-gazni qayta ishlash tarmoqlari yetakchi o'rinni egallab kelayotgan bo'lsa-da, qayta ishlash sanoati, xususan, to'qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish ulushining ortib borishi hududda strukturaviy diversifikatsiya jarayoni kechayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sanoat tarkibida xomashyo yo'nalishining salmoqli ulushi saqlanib qolayotgani yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish zaruratini anglatadi. Sanoatning innovatsion darajasi, texnologik yangilanish sur'atlari hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Demak, viloyat sanoatini yanada barqaror va raqobatbardosh rivojlantirish uchun tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilar taklif qilinadi:

1. Sanoatni diversifikatsiya qilishni jadallashtirish - yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaruvchi qayta ishlash tarmoqlarini kengaytirish hamda chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish.

2. Investitsion muhitni yaxshilash - to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, kichik sanoat zonalari va klaster tizimini rivojlantirish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish.

3. Innovatsion va texnologik modernizatsiyani kuchaytirish - raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.



4. Eksport salohiyatini oshirish - xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va tashqi bozorlarga chiqishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish.

5. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish - sanoat korxonalarini uchun malakali muhandis-texnik mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, Buxoro viloyati sanoatining tarmoq tarkibidagi ijobiy siljishlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish hududning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish hamda respublika sanoat salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *O'zbekiston Respublikasining sanoat statistikasi to'plami*. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). *Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari*. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2024). *Sanoatni rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent.
4. World Bank. (2020). *Uzbekistan - Economic Update*. Washington, DC.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2019). *Industrial Policy for Sustainable Development*. OECD Publishing.
6. United Nations Industrial Development Organization. (2022). *Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization*. Vienna.
7. Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition. *Harvard Business Review*, 76(6), 77-90.
8. Krugman, P. (1991). *Geography and Trade*. MIT Press.
9. Rodrik, D. (2016). Premature deindustrialization. *Journal of Economic Growth*, 21(1), 1-33.
10. Asian Development Bank. (2021). *Asian Development Outlook: Uzbekistan*. Manila.
11. United Nations Development Programme. (2023). *Human Development Report 2023/2024*. New York.
12. International Monetary Fund. (2023). *Republic of Uzbekistan: Staff Report*. Washington, DC.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2022). *2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent.
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). *Buxoro viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari*. Toshkent.
15. United Nations. (2015). *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100